

**“Bo'lajak olim” tanlovi doirasida “Istiqbolli startap loyihalar dasturini” o'tkazish  
tartibi to'g'risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom “Bo'lajak olim” tanlovi doirasidagi “Istiqbolli startap loyihalar dasturi”ni tashkil etish, g'oliblarni aniqlash va rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Dastur doirasida arizalarni qabul qilishga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) mas'ul hisoblanadi.

3. “Istiqbolli startap loyihalar dasturi” Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Bo'lajak olim” tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida nizom”da keltirilgan ilmiy g'oyalarni shakllantirish, ko'rib chiqish va tanlab olish tartibi asosida o'tkaziladi. Dasturda ishtirok etish ishtirokchilarning mazkur Nizomda belgilangan qoidalarga va talablarga to'liq roziligini anglatadi. Ishtirokchi mazkur Nizomda belgilangan qoidalar yoki talablarni buzishi yoki ularni to'g'ri bajarishdan bosh tortishi ishtirokchi Dasturda qatnashishdan bosh tortishini anglatadi.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**“Bo'lajak olim” tanlovi doirasidagi “Istiqbolli startap loyihalar dasturi”** ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlar va yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish, soddalashtirilgan tartibda talabalarning istiqbolli startap loyihalarini (keyingi o'rinlarda – ilmiy g'oyalarini) rag'batlantirishga qaratilgan tanlov;

**Istiqbolli startap loyihalar** — ilmiy dalil, muammo, faraz, nazariya kabi voqelikni aks ettirish shakllaridan biri bo'lib, fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalari asosida ishlab chiqilgan loyiha;

**talabgor** — Istiqbolli startap loyihani ishlab chiqqan Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 40 yoshdan oshmagan iqtidorli talaba;

**Tanlov komissiyasi** — Dastur doirasida kelib tushadigan ilmiy g'oyalar uchun alohida tuziladigan, tanlovlarni o'tkazish, g'oliblar to'g'risida xulosa olish hamda ushbu jarayonni muvofiqlashtiradigan Agentlikda tashkil etiladigan komissiya;

5. Tanlov Vazirning tegishli topshirig'iga asosan Agentlik tomonidan tashkil etiladi.

## **2-bob. Ilmiy g'oyalarni shakllantirish va ularni ko'rib chiqib, tanlab olish tartibi**

### **1-§ Ilmiy g'oyalarni shakllantirishga qo'yiladigan umumiy talablar**

6. Tanlovga iqtidorli yoshlar va yosh olimlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning ilmiy ijodiy g'oyalari, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy g'oyalar qabul qilinadi.

7. Agentlik tanlov boshlanishidan bir oy oldin o'z rasmiy veb-saytiga arizalarni shakllantirish, ro'yxatdan o'tkazish va topshirish tartibi, muddati va talablari ko'rsatilgan e'lonni joylashtiradi.

8. Bir kalendar yili davomida e'lon qilingan tanlov doirasida g'olib deb topilgan talabgorlar shu davr ichida navbatdagi tanlovlarda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

9. Tanlov doirasida ilmiy g'oyalar asosida maket va (yoki) prototip yaratishning hamda ilmiy loyihalarni amalga oshirishning eng ko'p muddati bir yilgacha bo'lishi mumkin.

### **2-§. Tanlov komissiyasi faoliyatini tashkil etish tartibi**

10. Tanlov doirasida kelib tushadigan ilmiy g'oyalarni ko'rib chiqish bo'yicha Tanlov komissiyasi tarkibi Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

11. Tanlov komissiyasi o'z yo'nalishida kamida 2 yil mehnat stajiga ega bo'lgan yuqori malakali (turli vazirlik, idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar, xususiy sektor vakillaridan ham kelishuv asosida jalb etilishi mumkin) kamida 7 nafar toq sonli a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi. Tanlov komissiyasiga raislik qilish vazifasi Agentlik direktoriga yuklatiladi.

Bunda Tanlov komissiyasi raisi, zarur hollarda tor ixtisoslashuvdagi mutaxassislarni (shu jumladan, ishlab chiqarish korxona va tashkilotlar mutaxassislarini) qo'shimcha ravishda ilmiy g'oya, ilmiy va startap loyihalarni ko'rib chiqish jarayoniga jalb qilishi mumkin.

12. Tanlov komissiyasi majlisi, unda Tanlov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

13. Tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Tanlov komissiyasi majlislari ochiq muhokama shaklida tashkil etiladi.

### **3-§. Ilmiy g'oyalarni ko'rib chiqish va tanlab olish tartibi**

14. Ilmiy g'oyalarni ko'rib chiqish Tanlov e'lon qilingandan so'ng, iqtidorli yoshlarning aniq amalga oshirish mexanizmlari, muddati va dastlabki natijalari ko'rsatilgan ilmiy g'oyalari asosida amalga oshiriladi.

1-bosqichda kiritilgan ilmiy g'oyalar to'liq taqdim etilganligi va rasmiylashtirilganligi Yoshlar akademiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Yoshlar akademiyasi zarur holatlarda, taqdim etilgan ilmiy g'oyalar bo'yicha qo'shimcha

ma'lumotlar, taqdimotlar talab etishi va ilmiy g'oyalarni o'rganishda tegishli mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

Tanlov doirasida talabgor tomonidan taqdimot qilingan ilmiy g'oyalarda kamchilik mavjud bo'lgan taqdirda, talabgorga takomillashtirish uchun qaytariladi. Talabgor ilmiy g'oyani bir oy muddat ichida takomillashtirilgan holda qayta taqdim etadi. Bir oydan kech taqdim etilgan ilmiy g'oyalar qabul qilinmaydi.

1-bosqich natijalari bo'yicha tanlovning 2-bosqichida ishtirok etadigan talabgorlar to'g'risida yig'ma ro'yxat shakllantiriladi.

2-bosqichda talabgorlar o'z ilmiy g'oyalarini Tanlov komissiyasi oldida taqdimot (prezentatsiya) ko'rinishida himoyasini o'tkazadilar. 2-bosqich tanlovlar davrida taqdimot himoyasida uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan talabgorlarning ilmiy g'oyasi Tanlov komissiyasining qaroriga asosan rad etilishi mumkin.

15. Taqdimot himoyasida talabgorlar ilmiy g'oyani qisqa, lo'nda va asoslangan holda ochib berishi hamda puxta tayyorgarlik ko'rgan holda ishtirok etishlari talab etiladi.

Bunda Tanlov komissiyasi taqdimot natijalariga asosan yakuniy xulosa tayyorlashda quyidagi baholash mezonlariga amal qiladi:

ilmiy g'oyani jamiyat va iqtisodiyotdagi ma'lum bir muammoning yechimiga qaratilganligi — 30 ballgacha;

ilmiy g'oyaning amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'larning aniq va asoslangan hisob-kitob qilinganligi — 30 ballgacha;

ilmiy g'oyaning aniq amalga oshirish mexanizmlari, muddati va dastlabki natijalari ko'rsatilganligi — 40 ballgacha.

16. Talabgorlarni baholash hamda g'olib deb topish Tanlov komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bunda, kamida 50 ball to'plagan ilmiy g'oyalar Tanlov komissiyasi qarori bilan g'olib deb topilishi mumkin.

G'olib deb topilgan talabgorlar to'g'risidagi ma'lumotlar Agentlik veb-saytida joylashtiriladi hamda Innovatsion rivojlanish agentligining buyrug'i bilan g'olib talabgorlarning ilmiy g'oyalari amalga oshirish uchun rag'batlantiriladi.

Bir talabgor uchun ilmiy g'oyani amalga oshirish uchun talab qilinadigan mablag'larning umumiy hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 400 baravaridan oshmasligi lozim.

17. Ilmiy g'oyalarni ko'rib chiqish va tanlab olish ushbu Nizomga [1-ildovada](#) keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3-bob. Ilmiy g'oyani moliyalashtirish tartibi**

18. Tanlovni tashkil etish va moliyalashtirish har yili Davlat byudjetidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ajratiladigan mablag'lar hisobidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

19. Tanlov komissiyasi muvaffaqiyatli deb topgan va tasdiqlagan ilmiy g'oyalarni rag'batlantirish Agentlik direktorining buyrug'i qabul qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

Agentlik direktorining buyrug'iga asosan muvaffaqiyatli o'tgan ilmiy g'oya mualliflariga pul mablag'lari ularning nomiga ochilgan bank kartasiga o'tkazib beriladi.

### **4-bob. Ilmiy g'oyani amalga oshirilishini monitoring qilish tartibi**

20. Tanlov doirasida ilmiylarning amalga oshirilishini monitoring qilish Agentlik bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

21. Ilmiy g'oyalarni amalga oshirish jarayonini monitoring qilish Yoshlar akademiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy g'oyalar bo'yicha belgilangan ishlarni o'z muddatida bajarmaslik, shuningdek, hisobotlarni topshirish muddatlari va moliyaviy intizomni buzish Yoshlar akademiyasining tashabbusi bilan talabgorning ikki yilga Tanlovda qatnashishini rad etish uchun asos bo'ladi.

### **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

22. Ishtirok etish qoidalarini yoki "Bo'lajak olim" tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida nizom" bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar yuzaga kelganda, bunday sharhlash va/yoki tushuntirish bo'yicha yakuniy qaror to'g'ridan-to'g'ri va faqat tanlov tashkilotchisi Agentlik tomonidan qabul qilinadi.

23. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mazkur nizom qoidalarida huquqiy bo'shliqlar va ziddiyatlar yuzaga kelganda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ish yuritiladi.

24. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tanlov ishtirokchilari qonunchilik hujjatlari buzilishi yuzasidan Vazirlikka shikoyat qilishi mumkin.

“Bo‘lajak olim” tanlovi doirasida  
“Istiqbolli startap loyihalar dasturini”  
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Tanlov doirasida ilmiy g‘oyalarni shakllantirish, ko‘rib chiqish va tanlab olish**

| <b>Bosqichlar</b> | <b>Subyektlar</b>                            | <b>Amalga oshiriladigan tadbirlar</b>                                                                                                                                                                                                | <b>Bajarish muddatlari</b>                                                   |
|-------------------|----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1-bosqich</b>  | Innovatsion rivojlanish agentligi (Agentlik) | “Bo‘lajak olim” tanlovi doirasida iqtidorli yoshlar uchun tanlov e‘lon qilish                                                                                                                                                        | Bir yilda bir marta                                                          |
| <b>2-bosqich</b>  | Tanlov ishtirokchisi                         | Aniq amalga oshirish mexanizmlari, muddati va dastlabki natijalari ko‘rsatilgan ilmiy g‘oyalarni taqdim etish                                                                                                                        | Tanlov e‘lon qilingandan so‘ng bir oy muddatda                               |
| <b>3-bosqich</b>  | Yoshlar akademiyasi                          | Ushbu Nizomning talablariga mos ravishda to‘liq taqdim etilganligi va rasmiylashtirilganligini ko‘rib chiqish va muvaffaqiyatli o‘tgan ilmiy g‘oyalar bo‘yicha yig‘ma ro‘yxat shakllantirish hamda tanlov komissiyasiga taqdim etish | Tanlovga hujjatlarni qabul qilish yakunlangan sanadan boshlab, 30 kun ichida |
| <b>4-bosqich</b>  | Tanlov komissiyasi                           | Talabgorlar ilmiy g‘oyalarining himoyasi o‘tkazilib, (prezentatsiya ko‘rinishida himoya qilishlari talab etiladi) yakuniy xulosaga kelish                                                                                            | Tanlov komissiyasiga yig‘ma ro‘yxat taqdim etilgandan so‘ng 30 kun ichida    |
| <b>5-bosqich</b>  | Agentlik                                     | G‘olib talabgorlarning ilmiy g‘oyalarini amalga oshirishlari uchun Agentlikning tegishli buyrug‘ini qabul qilish                                                                                                                     | Tanlov komissiyasi xulosasi rasmiylashtirilgandan so‘ng 10 kun ichida        |
| <b>6-bosqich</b>  | Agentlik                                     | Tanlov g‘oliblarini internet nashrlari va Innovatsion rivojlanish agentligi rasmiy veb-saytida e‘lon qilish                                                                                                                          | Agentlikning tegishli buyrug‘i qabul qilingandan so‘ng 10 kun ichida         |